



O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY SHAHARLAR VA ULARNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ozodova Farangiz Ollashukur qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

Turizm va Mehmondo'stlik yo'nalishi

251-guruh talabasi

Email: farangizozodova010@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy va tarixiy, rang-barang mahobatli binolari, Samarqand, Buxora, Xiva kabi madaniyat va sivilizatsiya markazlarining hozirgi kundagi ahamiyati va iqtisodiy, madaniy hayotdagi o'rni yoritib beraladi. Maqolada bu shaharlarning UNESCO Butunjahon merosi ro'yhatiga kiritilganligi, bir-birida takrorlanmagan me'morchiligi, turizmni rivojlantirishdagi o'rni va tarixiy xotirani tiklashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy shaharlarning xalqaro miqyosdagi nufuzi va bu yerdagi obidalarining qachon, kim tomonidan barpo etilganligi haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: UNESCO, Samarqand, Buxoro, Xiva, Sharq taronalari, tarixiy ahamiyat, turizm, madaniy meros, turistik obyekt.

KIRISH

O'zbekiston – qadimiy sivilizatsiyalar beshigi, yuzlab ulug' allomalar yetishib chiqqan zamin, san'at, me'morchilik va o'z davrida Markaziy Osiyoning diniy markazlaridan biri hisoblangan. Bu yurtning bir-biridan chiroyli tarixiy obidalari, me'moriy yodgorliklari, qadimiy madrasalari xalqimizning boy ma'naviy merosi sifatida alohida ahamiyatga ega va ko'p vaqtlardan beri butun dunyo turistlarini lol qoldirib, ilmiy izlanuvchilarning qiziqishlari ortishiga sabab bo'lmoqda. Tariximiz va milliy urf-odatlarimizni, xalqimizning qanchalik mehmondo'stligini butun dunyoga





tanitish, yurtimizga ko'proq turistlarni jalb qilish, turizm salohiyatini yanada isloh qilish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

O'zbekistondagi deyarli barcha tarixiy obyektlarning o'ziga xos o'rni bo'lib, ulardan dunyo miqyosida eng taniqlilaridan biri bu – Xiva. Shahardagi mashhur markazlarida biri - Ichan qal'a har yili o'ziga minglab turistlarni jalb qiladi. Ushbu ko'plab obyektlarni o'z ichiga olgan Ichan qal'a 1842-yilda Xiva xoni Ollaqulixon(1825-1842) tomonidan uzunligi 2250 metr, balandligi 8-10 metr va qalinligi 5-6 metr bo'lgan devor bilan o'ralgan. Shuningdek, bu qal'aning ichida turli davrlarda qurilgan imoratlar hali hamon qad ko'tarib turibdi. Ulardan biri 1910-yilda Xiva xoni Asfandiyorxonning qaynotasi va Bosh vaziri bo'lmish Islomxo'janing tashabbusi bilan qurib tugatilgan (1908-yilda qurilish ishlari boshlangan). Uning balandligi 56,6 metr bo'lib, O'rta Osiyodagi ikkinchi eng baland minora hisoblanadi. Ma'lumot tariqasida shuni ham aytish mumkinki, aytish mumkinki birinchi o'rinda Ko'hna Urganchdagi Qutlug' Temur minorasi (60 metr) va uchinchi o'rinda Buxorodagi Kalon minorasi(46,5 metr) turadi. Ichan qal'adagi yana bir salobatli me'moriy yodgorlik bu – Kalta Minor. Ushbu minora Muhammad Amirxon madrasasini old tomonida joylashgan va ba'zida madrasaning bir qismi deb ham ataladi. Shuningdek, minoraning ko'rinishi 1852-yilda boshlanib, 1855-yilda 29 metr qismi tugatilgandan so'ng qurilish to'xtatilgan. Umumiy qilib aytganda, Ichan qal'a muzeyqo'riqxonasi 26 gektar maydonni egallab, 54 ta tarixiy obida, 13 doimiy muzey eksponatlarini o'z ichiga oladi. Bu majmua 1990-yilda "Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi nomi bilan" YUNESCO ro'yhatiga kiritilgan va har yili minglab turistlar tashrib buyuradi. Xivaning Butunjahon madaniy merosi ro'yhatiga olinganligi bu shaharning jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos me'moriy va tarixiy qadriyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Samarqand – Markaziy Osiyoning eng qadimiy va go'zal shaharlaridan biridir. U o'zining boy tarixiy yodgorliklari, madaniy merosi, ilmiy an'analari, urf-odotlari va zamonaviy infratuzilmasi bilan nafaqat Markaziy Osiyo balki, butun butun dunyo sayyohlari uchun ham jozibador manzilga aylangan. Samarqandning yuragi hisoblanadigan eng mashhur memoriy majmuasi – Registon maydoni. U XV-XVI asrlarda qurilgan bo'lib, uch tomonidan uchta madrasa bilan o'ralgan. Bular: Ulug'bek





madrasasi(1417-1420), Sherdor madrasasi(1619-1636) va Tillakori(1646-1660). Bundan tashqari, hozirgacha Samarqandning ko'rkiga ko'rk qo'shib kelayotgan Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda majmuasi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek rasadxonasi, Hazrati Xizr masjidi va Afrosiyob xarobalari kabi turli turistik obyektlar juda ko'p. Samarqand shahri UNESCOning Butunjahon merosi ro'yhatiga 2001-yilda kiritilgan bo'lib, "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" deb e'tirof etiladi. Shahar qadimdan Buyuk Ipak yo'lining eng muhim markazlaridan biri bo'lgan va hozirgi kunda ham bir qator konferensiyalar, xalqaro miqyosdagi festivallar shu yerda o'tkaziladi. Ulardan biri – Registon maydonida har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali.

Yurtimizdagi yana bir tarixiy shaharlardan biri deb 2500 yildan ortiq tarixga ega, "Buxoroi Sharif" nomi bilan ulug'langan Buxoro shahrini ham misol qilsak bo'ladi. Bu shahar VIII asrda arablar tomonidan bosib olingandan so'ng, Islom madaniyatining markazlaridan biriga aylangan bo'lib, 1993-yilda YUNESCO ro'yhatiga kiritilgan. Shaharda ko'plab qadimiy obidalar saqlanib qolgan va ulardan Ark qal'asi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Mir Arab madrasasi, Labi Hovuz kabilar hozirgi kungacha nafaqat mahalliy aholi, balki tashqi turistlar tomonidan Markaziy Osiyoning noyob durdonalari sifatida ko'riladi. Bu yerda xalqaro festivallar, bir qator tadbirlar o'tkazilib turiladi va bunga misol qilib "Ipak va Ziravorlar festivali"ni aytib bo'ladi. Buxoro shahri O'zbekistonning ma'naviy poytaxtlaridan biri hisoblanib, xalqaro miqyosda ham "Tinchlik, ma'rifat va bag'rikenglik shahri" sifatida tanilgan. Bir so'z bilan aytganda, Buxoro milliy va diniy qadriyatlarimizning yaqqol namunasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-bob 61-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi." deb ta'kidlangan. Bundan tashqari, muhtarab birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabiz, Termiz kabi qadimiy shaharlarimiz xalqimizning ma'naviy qudrati, madaniyati va buyuk o'tmishini butun dunyoga namoyon etuvchi maskanlardir" deb aytib o'tgan hamda bu shaharlar ajdodlarimizning bunyodkorligi va ma'naviy olamini ifoda etuvchi tirik muzeylar ekanligini e'tirof etgan.





XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirda O'zbekiston Respublikasi hududiga kiruvchi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabiz, Termiz va Qarshi kabi bir necha ming yillik tarixga ega qadimiy imoratlarga boy shaharlarni hozirgi kunda ham butun jahonda o'rni katta. Ayni shuning uchun ham bunday tarixiy ahamiyatga ega har bir g'ishtni asrab-avaylashimiz, unumli foydalanib, kalejak avlodga munosib ravishda qoldirishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.
2. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch".2008.
3. To'xtayev.A "Xiva shahri – qadimiy me'morchilikning noyob markazi".2022.
4. Murtazayeva.D "Samarqand – sharq durdonasi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".2020.

